

YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHI SHAROITIDA UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGINING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Najmiddinov Sherzod Qiyomiddin o'g'li

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

ORCID: 0009-0007-3923-3214

sherezodnajmiddinov1@gmail.com

PhD Berdiyeva Dilfuza Axatovna

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

ORCID: 0000-0003-2455-385X

dili01.07@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida uy-joy communal xo'jaligi boshqaruvi tizimidagi asosiy muammolar va ularni hal qilish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyotning amaliy ahamiyati, ekologik barqarorlikni saqlashda va energiya samaradorligini oshirishda o'zining muhim roli haqida keng qamrovli ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, xalqaro tajribalardan foydalanish va innovatsion boshqaruv yondashuvlarini amaliyatga tatbiq qilish va uy-joy communal xo'jaligini takomillashtirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Xulosa qismida yashil iqtisodiyot sharoitida innovatsion rivojlanishning samarali yo'llari tavsija qilinadi. Shuningdek, uy-joy communal xo'jaligida qo'llanishi natijasida jamiyatga va ekologiyaga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri baholanadi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, uy-joy, innovatsiya, ekologik barqarorlik, energiya samaradorligi, communal xo'jaligi, xalqaro tajriba, barqaror rivojlanish, atrof-muhit, innovatsion boshqaruv, turar joy infratuzilmasi.

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ

Наджмиддинов Шерзод

Ташкентский университет архитектуры и строительства

PhD Бердиева Дильфуз

Ташкентский университет архитектуры и строительства

Аннотация. В данной статье анализируются основные проблемы в системе управления жилищно-коммунальным хозяйством и возможности их решения в условиях зеленой экономики. Предоставляется исчерпывающая информация о практическом значении зеленой экономики, ее важной роли в поддержании экологической стабильности и повышении энергоэффективности. Также в статье рассмотрены пути совершенствования жилищно-коммунального хозяйства путем использования международного опыта и внедрения инновационных подходов к управлению. В результате исследования рекомендованы эффективные пути инновационного развития в условиях зеленой экономики, оценено их положительное влияние на общество и экологию в результате их использования в жилищно-коммунальном хозяйстве.

Ключевые слова: зеленая экономика, жилье, инновации, экологическая устойчивость, энергоэффективность, коммунальное хозяйство, международный опыт, устойчивое развитие, окружающая среда, инновационный менеджмент, жилая инфраструктура.

**CURRENT PROBLEMS AND SOLUTIONS OF HOUSING AND COMMUNAL SERVICES
IN THE CONDITIONS OF GREEN ECONOMY DEVELOPMENT****Najmiddiniv Sherzod***Tashkent University of Architecture and Civil Engineering***PhD Berdiyeva Dilfuza***Tashkent University of Architecture and Civil Engineering*

Abstract. This article analyzes the main problems in the housing and communal economy management system and the possibilities of their solution in the context of the green economy. Comprehensive information is provided about the practical importance of the green economy, its important role in maintaining environmental stability and increasing energy efficiency. The article also considers ways to improve the housing and communal economy by using international experience and implementing innovative management approaches. As a result of the research, effective ways of innovative development in the conditions of the green economy are recommended, and their positive impact on society and ecology is evaluated as a result of their use in the housing and communal economy.

Keywords: green economy, housing, innovation, environmental sustainability, energy efficiency, public utility, international experience, sustainable development, environment, innovative management, residential infrastructure.

Kirish.

Yashil iqtisodiyot global miqyosda muhim tendensiyaga aylanishi, ekologik barqarorlikni saqlash va iqtisodiy rivojlanishning yangi yo'nalishlarini belgilashda alohida o'rinn tutadi. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlarda yashil iqtisodiyot tushunchasi, ayniqsa, uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida o'z ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Ushbu soha nafaqat iqtisodiy o'sish, balki atrof-muhitni muhofaza qilish va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan ham muhimdir. Hozirgi kunda uy-joy kommunal xo'jaligida yuzaga kelayotgan muammolar, masalan, energiya iste'moli, chiqindilarni boshqarish va atrof-muhitga zarar yetkazmaslik kabi masalalar, innovatsion boshqaruv yondashuvlarini joriy etishni taqozo etadi. Yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida ishlovchi boshqaruv tizimlari, energiya samaradorligini oshirish, qayta tikلانадиган energiya manbalaridan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishda innovatsion yechimlar kiritishga yordam beradi. Ushbu maqolaning maqsadi – uy-joy kommunal xo'jaligidagi dolzarb muammolarni tahlil qilib, yashil iqtisodiyotga asoslangan innovatsion rivojlantirish yo'llarini aniqlashdir. Maqola davomida ilgari surilgan muammolarni hal etish uchun mavjud xalqaro tajribalar va innovatsion texnologiyalarni ko'rib chiqamiz. Shuningdek, ushbu maqolaning natijalari uy-joy kommunal xo'jaligi tizimini yaxshilash va barqaror rivojlanishni ta'minlashga ko'maklashishi kutilmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Yashil iqtisodiyot tushunchasi 1970-yillarda rivojlanib, XIX-asrga kelib global muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynay boshladi. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashdir. Ushbu jarayonda uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida innovatsion yondashuvlarning zarurligi e'tiborga olinadi. Masalan, Xitoy, Germaniya va Skandinaviya mamlakatlarda yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimlari joriy etilgan va bu tajribalardan O'zbekiston uchun ham foydali saboqlar olinishi mumkin. Adabiyotlar tahlili jarayonida bir qator ilmiy tadqiqotlar, maqolalar va hisobotlar o'rganildi. Bu tadqiqotlar yashil iqtisodiyot va uy-joy kommunal xo'jaligi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Qizilov (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda O'zbekistonda yashil iqtisodiyot asoslari va ularning uy-joy kommunal tizimida qo'llanilishi tahlil qilingan. Muallif, shuningdek, energetik samaradorlikni

oshirish, chiqindilarni boshqarish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda innovatsion texnologiyalarning o'rni haqida to'xtalgan.

Mamatov (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqot ishida ekologik barqarorlikni ta'minlashda davlat siyosatining roli va ularni amaliyatga tatbiq etish jarayonini ko'rib chiqadi. Uning fikricha, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlar zarur, bu esa uy-joy communal xo'jaligida yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi. Yevropa Ittifoqida yashil iqtisodiyot bo'yicha amalga oshirilgan dasturlar, ularning samaradorligi va muvaffaqiyatli natijalarini O'zbekistonga ham qo'llash mumkin. Norvegiya va Daniya kabi mamlakatlar energiya samaradorligi va chiqindilarni boshqarishdagi innovatsion yondashuvlari bilan e'tibor qozonmoqda. Ularning tajribasi O'zbekistonda ham joriy etilishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Metodologiya nuqtai nazaridan, ushbu maqolada sifatli va miqdoriy tadqiqot usullari qo'llaniladi. Sifatli tadqiqotlar davomida so'rovnomalari, intervylular va ish joylari bilan suhbatlar o'tkazilib, odamlarning yashil iqtisodiyot va uy-joy communal xo'jaligi haqidagi fikrlari o'rganiladi. Miqdoriy tadqiqot usullari esa statistik ma'lumotlar va tadqiqotlar natijalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va boshqa rasmiy manbalardan olingan ma'lumotlar asosida energiya iste'moli, chiqindilarni boshqarish va ekologik barqarorlik darajasi aniqlanadi. Ushbu maqolada keltirilgan metodologiyalar O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tadqiqotlar davomida, energiya iste'molining kamayishi, chiqindilarni samarali boshqarish va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan innovatsion yechimlar taklif etiladi. Xalqaro tajribalar, xususan, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va energiya samaradorligini oshirishda muhim o'rinni tutadi. Shuningdek, xalqaro tajribalar ham o'rganiladi. Misol uchun, Germaniyada yashil energiya manbalaridan foydalanish va energiya samaradorligini oshirishdagi yondashuvlar O'zbekiston uchun qanday foydali bo'lishi mumkinligini ko'rsatib beradigan tadqiqotlar mavjud. Shunga ko'ra, O'zbekiston uchun samarali boshqaruvi tizimlarini joriy qilish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini qo'llashda xalqaro tajriba muhim ahamiyatga ega. Tahlil va metodologiyalar yordamida, maqolada ilgari surilgan masalalarni hal etish yo'llari, innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi. Adabiyotlar tahlili va metodologiya bo'limi orqali ushbu mavzuda olib borilgan tadqiqotlar natijalari va ularning O'zbekistondagi amaliyatga ta'siri haqida keng ma'lumot berish maqsad qilinadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ushbu tadqiqot davomida olingen natijalar O'zbekistonning uy-joy communal xo'jaligini innovatsion rivojlantirish va yashil iqtisodiyotni joriy etish borasida muhim ma'lumotlar taqdim etdi. Tadqiqot jarayonida amalga oshirilgan so'rovnomalari, intervylular va statistik ma'lumotlar tahlili natijasida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. Energiya iste'moli: O'zbekistonning uy-joy communal sektori energiya iste'moli darajasi, 2021-yilga oid statistik ma'lumotlarga ko'ra, o'rtacha har bir fuqaro uchun yillik 1200 kWt tashkil etdi. Biroq, tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, energiya samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjud. Mavjud infratuzilma va texnologiyalarni yangilash orqali energiya iste'molini 20-30% ga kamaytirish mumkin.

2. Chiqindilarni boshqarish: Tadqiqotda aniqlangan yana bir muhim natija-chiqindilarni boshqarish tizimining samarasizligi. O'zbekiston bo'yicha uy-joy communal xo'jaligida ishlab chiqarilayotgan chiqindilarning 70% ga yaqini to'g'ri qayta ishlanmaydi. Buning sababi - mavjud infratuzilmaning yetishmasligi va aholi orasida chiqindilarni ajratish madaniyatining pastligi. Innovatsion yechimlar va qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish orqali chiqindilarni 50% ga kamaytirish mumkinligi aniqlanmoqda.

3. Ekologik barqarorlik: So'rovnama natijalariga ko'ra, fuqarolarning 65% yashil iqtisodiyot tamoyillarini tushunmasligi va ularga amal qilmasligi ma'lum bo'ldi. Bu esa ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim to'siq bo'lib qolmoqda. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida aholi orasida ekologik ta'lim va ongni oshirish zarurati ko'rinoqda.

4. Innovatsion yechimlar: Tadqiqot davomida ilgari surilgan innovatsion yechimlar, masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar kiritildi. Ushbu yechimlar O'zbekiston sharoitida tatbiq etilishi mumkin bo'lgan rejallardir. Innovatsion texnologiyalarini joriy etish orqali uy-joy kommunal xo'jaligida ekologik barqarorlikni oshirish va energiya samaradorligini ta'minlash imkoniyatlari mavjud.

5. Xalqaro tajriba: O'zbekistonning yashil iqtisodiyotni rivojlantirish borasida xalqaro tajribalarni o'rganish natijalari ham muhim ahamiyatga ega. Yevropa davlatlari tajribasidan foydalanish, ularning yondashuvlari va metodologiyalarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish tadqiqotning muhim natijalaridan biridir.

Yuqorida qayd etilgan natijalar O'zbekiston uy-joy communal xo'jaligida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zaruriy sharoitlarni yaratish va innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishda yordam beradi. Kelgusidagi tadqiqotlar va amaliyotlar uchun ushbu natijalar asosiy ko'rsatkichlar sifatida xizmat qiladi.

O'zbekistonning uy-joy communal xo'jaligi muammolari va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha yechimlar keng muhokama qilinishi asnosida quyidagi yechimlarning ahamiyati va ularning amaliyotda qanday tatbiq etilishi zarur deb hisoblaymiz.

Birinchidan, uy-joy communal xo'jaligida innovatsion yondashuvlar joriy etilishi zarur. Bu yondashuvlar O'zbekiston sharoitida mavjud bo'lgan muammolarni hal qilishda samaradorlikni oshiradi. Masalan, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, axlatni to'g'ri boshqarish kabi tadbirlar, ekologik barqarorlikni ta'minlash va resurslarni tejash imkonini beradi. Bu kabi yechimlar, nafaqat muammolarni bartaraf etishda, balki aholi farovonligini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchidan, yashil iqtisodiyot prinsiplarini qo'llash orqali uy-joy communal xo'jaligi samaradorligini oshirishga erishish mumkin. Yashil iqtisodiyot asosan resurslarni muhofaza qilish, tabiatga zarar yetkazmasdan iqtisodiy o'sishga erishish hamda ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan. Bu yo'nalishlar O'zbekistonda muhim ahamiyatga ega, chunki mamlakat ekologik muammolar bilan kurashishga muhtoj. Shuning uchun, ushbu yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotlar olib borish va amaliyotda qo'llash zarur.

Uchinchidan, xalqaro tajribalar O'zbekiston uchun muhim manba hisoblanadi. Boshqa mamlakatlarda amalga oshirilgan innovatsion yechimlar va yondashuvlar, O'zbekistondagi sharoitlarga moslashtirilishi mumkin. Masalan, Skandinaviya mamlakatlarida amalga oshirilgan yashil energiya dasturlari va communal xizmatlar sohasidagi innovatsion yechimlar O'zbekiston uchun o'rnak bo'lishi mumkin. Bunday tajribalarni o'rganish va tatbiq etish, O'zbekistonning uy-joy communal xo'jaligini rivojlantirishga yordam beradi. Undan tashqari O'zbekistonda mavjud bo'lgan muammolarni hal qilish uchun, hukumat va tadbirkorlar o'rtasida samarali hamkorlik o'rnatilishi lozim. Innovatsion yechimlarni joriy etish jarayonida davlatning qo'llab-quvvatlashi va tadbirkorlarning tashabbusi birgalikda ishlashi muhimdir. Bu hamkorlik, communal xizmatlarni yanada sifatli va barqaror qilishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar.

Ushbu maqolada O'zbekistonning uy-joy communal xo'jaligidagi dolzarb muammolar va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha yechimlar muhokama qilindi. Ta'kidlanganidek, uy-joy communal xizmatlari sifatining oshishi va ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida innovatsion yondashuvlar joriy etish zarur. Yashil iqtisodiyot konsepsiysi asosan resurslarni tejash va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilganligi sababli, uning tatbiqi O'zbekiston uchun katta ahamiyatga ega. Maqolada keltirilgan yechimlar, shu jumladan, qayta tiklanuvchi

energiya manbalaridan foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va axlatni boshqarish kabi tadbirlar, uy-joy kommunal xo'jaligi muammolarini hal qilishda samarali bo'lishi kutilmoqda. Ushbu innovatsion yondashuvlar, aholi farovonligini oshirish bilan birga, ekologik muammolarni hal qilishga ham yordam beradi.

Shuningdek, O'zbekiston uchun xalqaro tajribalarni o'rghanish va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish zarurligi ta'kidlandi. Boshqa mamlakatlardagi muvaffaqiyatli tajribalar, O'zbekistonning kommunal sohasini rivojlantirishda muhim manba bo'lishi mumkin. O'zaro hamkorlik, davlat va tadbirkorlar o'rtasida o'zaro aloqlar va innovatsion yechimlarni joriy etishda birgalikda ishslash, kommunal xizmatlarning sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Umuman olganda, O'zbekistonning uy-joy kommunal xo'jaligini rivojlantirishda yashil iqtisodiyotni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Kelajakda bu sohada olib boriladigan tadqiqotlar va amaliyotlar, O'zbekistonni ekologik barqarorlik va iqtisodiy o'sish yo'liga olib chiqishi mumkin. Ushbu maqola, mazkur muammolarni hal qilishda yangi fikrlar va yondashuvlar taklif etganligi bilan ahamiyatli bo'lib, u kelgusidagi tadqiqotlar va amaliyotlar uchun asos bo'lishi kutilmoqda.

Adabiyotlar/Литерапия/Reference:

Berdiyeva D.A. (2023). *Uy-joy fondi boshqaruvini samarali tashkil etish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, /(10), 460-465. <https://doi.org/>

Frolova E., & Petrov, V. (2019). *Environmental Management in Urban Areas: Best Practices and Policy Recommendations. Urban Studies*, 56(5), 1025-1040.

Ghasemi A., & Javadi M. (2019). *The Role of Urban Management in the Implementation of Sustainable Development Goals. Sustainability*, 11(3), 567.

Grigoryan M., & Ivanova A. (2020). *Green Economy: Concepts, Practices, and Challenges. Journal of Environmental Management*, 250, 109477.

Niyazov U., & Urazov, M. (2021). *Green Economy and Sustainable Development in Uzbekistan. Economic Research Journal*, 32(2), 123-139.

United Nations. (2015). *Transforming our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. New York: United Nations*.

World Bank. (2016). *Urbanization and Development: Emerging Futures. Washington, DC: World Bank Publications*.